

**TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINING ROLI****THE ROLE OF INNOVATIVE BANKING SERVICES IN THE LENDING PRACTICE OF COMMERCIAL BANKS****¹Boymaxmadov Alisher Xoliyor o'g'li**¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
E-mail: a.boymakhmadov@tsue.uz**Annotatsiya
Annotation**

Uzb. - Mazkur maqolada tijorat banklari kreditlash amaliyotida innovatsion bank xizmatlarining tutgan o'rnini va ularning samaradorlikka ta'siri o'rganiladi hamda raqamli texnologiyalar va zamonaviy innovatsion vositalarning (mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun'iy intellekt, big data tahlili va boshqalar) kreditlash jarayonlariga integratsiyalashuvi yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining mobil ilovalar orqali kredit mahsulotlarini taqdim etish amaliyoti ko'rib chiqiladi.

Eng. - This article analyzes the role of innovative banking services in the lending practices of commercial banks and their impact on operational efficiency. It also highlights the integration of digital technologies and modern innovative tools—such as mobile applications, online platforms, artificial intelligence, big data analytics, and others—into credit issuance processes. Furthermore, the article examines the practice of providing credit products through mobile applications by commercial banks operating in Uzbekistan.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

❖ raqamli iqtisodiyot, raqamli xizmatlar, masofaviy xizmatlar, mobil-banking, mobil ilovalar.

❖ digital economy, digital services, remote services, mobile banking, mobile applications.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida raqamlashtirish va innovatsion xizmatlarni joriy etishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar ayniqsa kreditlash sohasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda tijorat banklari mijozlarga kredit mahsulotlarini taklif etishda qulaylik, tezkorlik va zamonaviy texnologik yondashuvlarni birlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda [1].

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi texnologik innovatsiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, blokcheyn, masofaviy xizmatlar va mobil ilovalar orqali tijorat banklari

faoliyatining transformatsiyasiga zamin yaratmoqda. Innovatsion bank xizmatlari — bu nafaqat texnologik yangilik, balki mijozlarga yo'naltirilgan va yuqori darajada avtomatlashtirilgan xizmatlar majmuasidir. Ular orqali kredit olish, qarzi tahlili, risklarni baholash hamda monitoring jarayonlari soddalashtirilmoqda va samaradorligi oshirilmoqda. O'zbekiston sharoitida raqamlashtirish jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalishda tijorat banklari tomonidan elektron kreditlash platformalari, raqamli skoring tizimlari, masofaviy

identifikatsiya kabi innovatsion xizmatlar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

A. Xodjimamedov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida bank ekotizimini transformatsiya qilish va takomillashtirish masalalari yoritilgan [3]. Muallif izlanishlarida bank ekotizimi konsepsiyasi ilgari surilgan bo'lsa-da, mijozlar va banklar o'rtasidagi integratsiya darajasi yuzasidan empirik misollar keltirilmagan.

Iqtisodchi olim T. Raxmatov o'z tadqiqotlarida marketing vositasida raqamli xizmatlarni tijorat banklari faoliyatiga joriy etish imkoniyatlarini yoritadi [4]. Unda innovatsion mahsulotlar orqali mijozlarni segmentatsiyalash, maqsadli kredit strategiyalarini ishlab chiqish hamda texnologik yechimlarni ommalashtirish bo'yicha yo'nalishlar ko'rsatib o'tilgan.

K. Pousttchi va M. Dehnert o'z tadqiqotlarida mijozlarning kredit xizmatlari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida raqamli interfeyslar (mobil banking, onlayn ilovalar) qanday rol o'ynashini tahlil qilganlar [5]. Ushbu tadqiqotda chakana bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida raqamli valyutalarning imkoniyatlari yoritilgan.

S. Huang tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun'iy intellekt, xususan, deep learning algoritmlarining moliyaviy xizmatlarga, jumladan kredit baholash va qaror qabul qilish jarayonlariga ta'siri o'rganilgan [6]. Tadqiqotda tijorat banklari tomonidan kredit xavfini aniqlash, mijozni identifikatsiya qilish hamda ma'lumotlarni avtomatik tarzda

tahlil qilish jarayonlarida ushbu texnologiyalarni qo'llash amaliyoti yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishida muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari tomonidan joriy etilgan innovatsion xizmatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bu onlayn kreditlash tizimidir. Mazkur tizim mijozlarga bank filiallariga bormasdan turib, internet yoki mobil ilovalar orqali kredit arizasini topshirish, zarur hujjatlarni yuborish, kredit tarixini ko'rish hamda ariza holatini kuzatib borish imkonini beradi. Misol uchun, Ipoteka bank, Agrobank va Xalq banki o'z mobil ilovalari orqali mikro va iste'mol kreditlarini onlayn tarzda taqdim etmoqda.

Markaziy bankning statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston banklari tomonidan berilgan kreditlarning 32 foizi raqamli platformalar orqali taqdim etilgan. Bu esa innovatsion xizmatlarning mijozlar orasida keng ommalashayotganini ko'rsatadi. Xususan, yoshlar va tadbirkorlar bu xizmatlardan faol foydalanmoqda.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar tarkibida mikrokreditlar eng yuqori o'sish sur'atini qayd etgan bo'lib, bu ko'rsatkich boshqa kredit turlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Ushbu davrda yuridik shaxslarga ajratilgan mikrokreditlar hajmi 86 foizga, jismoniy shaxslarga ajratilgan mikrokreditlar esa 75 foizga o'sdi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar (mlrd. so'm) [2]

Ko'rsatkich nomi	2023-yil 1-sentabr	2024 yil 1- sentabr	O'sish (foizda)
Jami kreditlar	444 723	509 676	15
Jismoniy shaxslarga kreditlar	134 288	166 906	24
Ipoteka kreditlari	53 507	63 759	19
Mikrokreditlar	20 856	36 469	75

Iste'mol kreditlari	39 929	42 053	5
Talaba kreditlari	2 712	5 082	87
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kreditlar	17 211	18 404	7
Boshqa kreditlar	74	1 139	1433
Yuridik shaxslarga kreditlar	310 435	342 770	10
Kredit tashkilotlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarga berilgan kreditlar	296 755	324 345	9
Lizing va faktoring	1 654	2 384	44
Banklararo kreditlar	989	658	-33
Mikrokreditlar	5 631	10 471	86
Sindikatlashirilgan kreditlar	5 406	4 912	-9

Bunday yuqori o'sish sur'atining asosiy sababi sifatida onlayn banking xizmatlarining rivojlanishini ko'rsatish mumkin. O'zbekistonda bank sektori raqamli transformatsiya bosqichini faol bosib o'tar ekan, kreditlash sohasida ham zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Jumladan, masofaviy identifikatsiya va e-KYC (Know Your Customer) tizimlari orqali kredit olish jarayoni ancha soddalashtirilmoqda. Ushbu tizimlar mijozlarni onlayn tarzda aniqlash hamda ularga avtomatlashtirilgan moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatini yaratmoqda.

Masalan, "Kapitalbank" ATB va "Hamkorbank" ATB tomonidan masofaviy identifikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi natijasida mijozlarga to'liq onlayn rejimda kredit olish imkoniyati taqdim etilgan. Bu jarayon yuzni aniqlash, biometrik ma'lumotlarni tekshirish, hujjatlarni avtomatik tanib olish (OCR) va sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish orqali amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, tijorat banklari kredit portfellarining sifatini oshirish maqsadida skoring tizimlarini takomillashtirmoqda.

Ushbu tizimlar kredit oluvchining moliyaviy faoliyati, daromad manbalari, xarajat yo'nalishlari kabi ko'rsatkichlarni tahlil qiladi. Banklar esa ushbu ma'lumotlarga asosan kredit ajratish bo'yicha xulosa chiqarib, qaror qabul qilmoqda. Bu esa kredit xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023-yil oxiriga kelib, O'zbekiston tijorat banklarining 18 tasi to'liq raqamli kreditlash imkoniyatiga ega mobil ilovalar va veb-platformalarni ishlab chiqqan. Bu holat innovatsion bank xizmatlarining real sektor bilan tobora chuqur integratsiyalashayotganidan dalolat beradi.

Quyidagi 2-jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, 2025-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan bir qator tijorat banklari o'z mobil ilovalari orqali jismoniy shaxslar uchun raqamli kredit xizmatlarini taklif qilmoqda. Ushbu kreditlar, asosan, iste'mol kreditlari ko'rinishida bo'lib, mijozlar bank ofisiga tashrif buyurmasdan, mobil ilova orqali kredit olish imkoniyatiga ega. Bu esa foydalanuvchilarga istalgan joyda va vaqtda moliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun qulaylik yaratadi.

2-jadval

O'zbekistonda raqamli kreditlashni qo'llab-quvvatlovchi bank ilovalari

Nº	Bank nomi	Ilova nomi / Platforma	Kredit summasi (so'm)	Yillik foiz stavkasi	Kredit muddati	Onlayn ariza
1	TBC Bank	TBC UZ	100 mln. gacha	28 foiz	3 yilgacha	Mavjud
2	Ipak Yo'li Banki	Ipak Yo'li mobil ilovasi	100 mln. gacha	30,9 foizdan boshlab	1-3 yil	Mavjud

3	Davr Bank	Davr Bank ilovasi	100 mln. gacha	27-49 foiz	Ko'rsatilmagan	Mavjud
4	Agrobank	Agrobank ilovasi	100 mln. gacha	32 foiz	2 yil	Mavjud
5	Ipoteka Bank	Ipoteka Bank ilovasi	100 mln. gacha	24-45 foiz	3-5 yil	Mavjud
6	Anorbank	Anorbank ilovasi	100 mln. gacha	27-41 foiz	3-5 yil	Mavjud
7	Garant Bank	Garant Bank ilovasi	100 mln. gacha	32 foiz	1-2 yil	Mavjud
8	Asakabank	Asakabank ilovasi	100 mln. gacha	28-36 foiz	4 yil	Mavjud
9	SQB (O'zsanoatqurilishbank)	SQB mobile	100 mln. gacha	27,9 foiz dan	48 oygacha	Mavjud
10	Hamkorbank	Hamkorbank ilovasi	50 mln. gacha	32-40 foiz	12-36 oy	Mavjud
11	Turonbank	Turonbank ilovasi	100 mln. gacha	28,99-29,9 foiz	48 oygacha	Mavjud
12	Aloqabank	Zoomrad	100 mln. gacha	26-30 foiz	48 oygacha	Mavjud
13	Tenge Bank	Tenge Bank ilovasi	100 mln. gacha	30 foiz	4 yil	Mavjud
14	Trastbank	Trastbank ilovasi	50 mln. gacha	24-30 foiz	1-5 yil	Mavjud
15	Yangi Bank	Yangi Bank ilovasi	100 mln. gacha	1,5 foizdan boshlab	2 yil	Mavjud
16	O'zbekiston Milliy Banki (NBU)	Milliy 2.0 Bank ilovasi	500 mln. gacha	26 foiz	36 oygacha	Mavjud

Bank ilovalari orqali foydalanuvchilar kredit olish uchun onlayn ariza topshirishi, hujjatlarni rasmiylashtirishi va bir necha daqiqa ichida mablaglarni olishlari mumkin. Ushbu amaliyot tijorat banklarining kreditlash faoliyatida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion xizmatlardan keng foydalanilayotganini tasdiqlaydi.

Bank xizmatlarining avtomatlashtirilishi natijasida kredit arizalarini ko'rib chiqish muddati sezilarli darajada qisqardi. Dastlabki baholash avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida amalga oshiriladi. Ular mijozning moliyaviy holati va boshqa omillarni tahlil qilib, uning kreditga layoqatliligini aniqlaydi. Natijada, kredit ajratish bo'yicha qaror qabul qilish muddati o'rtacha 2-3 ish kunidan bir necha soatgacha qisqardi.

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan kredit xizmatlarining raqamlashtirilishi va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Innovatsion xizmatlar tuzilmasi banklar tomonidan qo'llanilayotgan texnologik yechimlar, infratuzilma darajasi va

moslashuvchanlik salohiyati bilan belgilanadi. Bugungi kunda ko'plab banklar "Bank-as-a-Service (BaaS)" modelini joriy etib, fintex kompaniyalari bilan hamkorlikda xizmatlar integratsiyasini yo'lga qo'yimoqda. Shuningdek, mobil ilovalar orqali kredit monitoringi, kredit kalendari kabi funksiyalar mijozning moliyaviy intizomini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda yirik tijorat banklarining 85 foizi mijozlarga mobil ilovalar orqali kredit olish, balansni kuzatish hamda kredit holatini nazorat qilish imkonini taqdim etgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 2,5 barobarga oshgan.

Innovatsion yondashuvlar kredit risklarini boshqarishda ham samarali natija bermoqda. Yirik banklar real vaqt rejimidagi xavf monitoringi tizimlarini joriy etgan bo'lib, bu tizimlar kredit kechikishlari va shubhali tranzaksiyalarni aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda yashil moliyalashtirish

yo'nalishida yangi mahsulotlar ishlab chiqilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda tijorat banklarining 70 foizi kredit mahsulotlarini muayyan sohalarga moslashtirgan. Masalan, agroindustriya uchun mo'ljallangan kreditlar hajmi 2023-yilga nisbatan 34 foizga oshgan. Bunday diversifikatsiya banklar raqobatbardoshligini oshirib, mijozlarga kengroq imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, kredit xizmatlari faqat moliyaviy yordam sifatida emas, balki kompleks xizmatlar to'plami (sug'urta, maslahat, moliyaviy savodxonlik) sifatida taklif etilmoqda.

2024-yil boshida raqamli monitoring tizimiga ega banklarda muddati o'tgan to'lovlar darajasi boshqa banklarga nisbatan 27 foizga past bo'lgan. Shuningdek, kredit tarixini shakllantirishda banklar rasmiy daromaddan tashqari muqobil manbalarni, masalan, tranzaksiyalarni ham inobatga olmoqda. Bu norasmiy sektordagi mijozlarga kredit olish imkonini kengaytiradi.

Innovatsion texnologiyalar bank operatsiyalarini soddalashtirib, xarajatlarni kamaytirishga ham xizmat qilmoqda. Onlayn ariza va baholash tizimlari yordamida filial tarmog'ini kengaytirmasdan ko'proq mijozlarni qamrab olish mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq hududlarida moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini oshiradi.

Shuningdek, "Open Banking" va "Buy Now, Pay Later" (BNPL) modellarining joriy qilinishi kredit xizmatlarining shaffofligini va qulayligini oshirmoqda. Ochiq bank tizimi mijozga ma'lumotlarini boshqa banklarga taqdim etish imkonini berib, raqobat va tanlov imkoniyatini kengaytiradi. BNPL esa iste'mol kreditlari segmentini kengaytirib, kichik xaridlarni bo'lib-bo'lib to'lash imkonini

bermoqda. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tijorat banklarining innovatsion kredit xizmatlari nafaqat texnologik jihatdan ilg'or, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shuvchi vosita sifatida shakllanmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tijorat banklarining kreditlash sohasidagi innovatsion faoliyati moliyaviy inklyuziya darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli kredit xizmatlari ilgari bank xizmatlaridan foydalana olmagan aholining e'tiborini tortmoqda. Bu nafaqat mijozlar bazasini kengaytiradi, balki moliyaviy savodxonlik va mamlakatdagi iqtisodiy faollikni ham rag'batlantiradi. Masalan, mobil ilovalar orqali taqdim etilayotgan mikrokreditlar yoki QR-kod orqali olinadigan tezkor kreditlar ayniqsa yoshlar, kichik biznes va o'z-o'zini band qilganlar uchun foydalidir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mikrozoymalar soni o'tgan yilga nisbatan 41 foizga oshgan, mijozlarning 62 foizi esa kreditni raqamli platformalar orqali olgan.

Innovatsion xizmatlar ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga ham yo'naltirilmoqda. Ayrim banklar nafaqaxo'rlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va yolg'iz onalar uchun maxsus kredit mahsulotlarini taklif qilmoqda. Bu esa banklarning ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvini namoyon etadi. Xalqaro bank tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy innovatsiyalarga asoslangan kredit xizmatlari mijozlarning sodiqligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, bank kredit jarayonlariga innovatsion xizmatlarni joriy etish faqat texnik taraqqiyot emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichi sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2023-yil 11-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF 158-son Farmoni. <https://uzbekistan2030.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankingning Statistik byulleteni Toshkent. 2024-yil.

3. Xodjimamedov, A. A. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank ekotizimini takomillashtirish masalalari. *Muhandislik va Iqtisodiyot*, 2(1), 33-38. <https://muhandislik.iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/412>

4. Raxmatov, T. (2024). Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 4(1), 65-70. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/download/1913/1981>

5. Pousttchi, K., & Dehnert, M. (2018). Exploring the digitalization impact on consumer decision-making in retail banking. *Journal of Financial Services Marketing*, 23(3), 157-168. <https://doi.org/10.1057/s41264-018-0050-3>

6. Huang, S. (2024). *Deep Learning Applications in Finance (Doctoral dissertation)*. University of Bath. https://researchportal.bath.ac.uk/files/356595105/353743623_Redacted.pdf